

**FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI MANBALARI:
O'ZBEKISTON VA AQSH HUQUQ TIZIMIDA QIYOSIY TAHLIL**

Axmedova Moxigul Faxridin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti,

“Advokatlik faoliyati” yo‘nalishi magistratura bosqichi talabasi

E-pochta: Mokhigul52@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu ilmiy maqolada fuqarolik protsessual huquqi manbalarining O‘zbekiston Respublikasi va Amerika Qo‘shma Shtatlari huquq tizimlaridagi o‘rni, ierarxiyasi va amaliy ahamiyati qiyosiy-huquqiy tahlil usulida o‘rganiladi. Kodifikatsiyalangan (kontinental) va pretsedentga asoslangan (common law) tizimlarning asosiy farqlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek ikkala tizimning huquq ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyotidagi o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Maqola O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi kabi birlamchi manbalarni, shuningdek Oliy sud Plenumi qarorlari va xalqaro shartnomalarni ikkilamchi manba sifatida tahlil qilinadi. AQSH tizimida esa Federal Fuqarolik protsessual qoidalari(FRCP), shtat fuqarolik protsessual kodekslari, pretsedent huquqi va doktrina manbalari ko‘rib chiqiladi. Maqola oxirida ikkala tizimni takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.*

***Kalit so‘zlar:** fuqarolik protsessual huquqi, huquq manbalari, qiyosiy huquqshunoslik, Fuqarolik protsessual kodeksi, common law, kodifikatsiya, pretsedent, huquq tizimi.*



Fuqarolik protsessual huquqi manbalari masalasi zamonaviy huquqshunoslikning eng muhim va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning jadal rivojlanishi, iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi va huquqiy integratsiya jarayonlari turli huquq tizimlarining protsessual manbalari o'rtasidagi qiyosiy tahlilga bo'lgan ilmiy ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, milliy protsessual qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishda xorijiy tajribani o'rganish va uni tanqidiy tahlil qilish zaruriyati tobora ortib bormoqda.¹

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, milliy huquq tizimini shakllantirishda Sovet davri merosini qayta ko'rib chiqdi va kontinental an'analarga asoslangan yangi kodifikatsiya siyosatini amalga oshirdi. Bu jarayon 1997-yilgi Fuqarolik protsessual kodeksining qabul qilinishi, so'ngra 2018-yilgi yangi tahrir bilan o'z mantiqiy davomini topdi.²

Amerika Qo'shma Shtatlari huquq tizimi esa tarixan common law an'alaridan shakllanib, 1938-yilda Federal Fuqarolik Protsessual Qoidalari (FRCP) qabul qilinishi bilan sezilarli isloh bosqichiga kirdi. Ikkala tizim o'rtasidagi fundamental farq shundaki, O'zbekistonda protsessual huquqning asosiy manbai qonunchilik hujjatlari bo'lsa, AQSHda sud pretsedenti va qoidalar tizimi birga va parallel ravishda ishlaydi.

¹Sarker M. Comparative Civil Procedure. — Cambridge University Press, 2020. — P. 1–15.

²O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 22.01.2018 (2025-yil o'zgartirishlar bilan). URL: <https://lex.uz/docs/-3517337>

Ushbu tadqiqotning maqsadi fuqarolik protsessual huquqi manbalarining ikkala huquq tizimidagi ierarxik tuzilishi, amaliy qo'llanilishi va huquqiy islohot istiqbollari qiyosiy-huquqiy nuqtai nazardan o'rganishdan iborat. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va normativ sharhlash metodlari tashkil etadi.³

Huquq manbasi (source of law) — huquq normasining tashqi ifodalanish shakli sifatida ta'riflanadi. Ushbu tushuncha ikki ma'noda qo'llaniladi: formal (rasmii) va material ma'noda. Formal manbalar deganda huquq normalarini o'zida mujassamlashtiruvchi va ularga yuridik kuch baxsh etuvchi hujjatlar — Konstitutsiya, qonunlar, kodekslar, prezident farmonlari, sud qarorlari va xalqaro shartnomalar tushuniladi. Material manbalar esa huquqning kelib chiqishidagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni anglatadi.⁴

Fuqarolik protsessual huquqidagi manbalarni tasniflashda quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

- 1) yuridik kuchga ko'ra ierarxik tasnif;
- 2) qabul qiluvchi subyektga ko'ra tasnif;
- 3) hujjat shakliga ko'ra tasnif;
- 4) normaning mazmuniga ko'ra tasnif.

³Zweigert K., Kötz H. Introduction to Comparative Law. — Oxford: Clarendon Press, 1998. — P. 67–89.



Kontinental(romano-german) huquq tizimida, jumladan O‘zbekistonda, manbaning ierarxik tizimligi — yuqori turuvchi normaning quyi turuvchi normaga zid kelmasligi prinsipi — protsessual qonunchilikni tartibga solishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Common law tizimida esa qonunchilik (statute) bilan birga sud pretsedenti (case law) teng huquqli yoki ba’zan ustuvor manba sifatida qaraladi. Bu farq ikkala tizimning strukturaviy xususiyatlarini belgilab beradi va huquqni qo'llash amaliyotida ham sezilarli tafovutlarga olib keladi.⁵

Qiyosiy huquqshunoslik (comparative jurisprudence) nuqtai nazaridan turli huquq tizimlaridagi protsessual manbalarni tahlil qilishda bir qator metodologik muammolar yuzaga keladi. Birinchidan, huquqiy tushunchalarning funksional ekvivalentligini aniqlash zarur. Masalan, O‘zbekiston FPKdagi “Oliy sud Plenumi qarorlari” va AQSHdagi “Supreme Court Advisory Committee Notes” funksional jihatdan o‘xshash, ammo yuridik tabiati jihatidan farqlanadi.

O‘zbekiston respublikasida fuqarolik protsessual huquqining manbalari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — fuqarolik protsessual huquqining eng oliy va birlamchi manbasi hisoblanadi. 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning huquqiy himoya kafolatlarini kuchaytirdi va sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamladi.

⁵Merryman J.H., Pérez-Perdomo R. The Civil Law Tradition: An Introduction to the Legal Systems of Europe and Latin America. — Stanford University Press, 2007. — P. 30–55.

Konstitutsiyaning 54-55-moddalari har kimning huquqi buzilgan taqdirda sudga murojaat etish huquqini kafolatlaydi.⁶

130-modda fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni faqat sud orqali amalga oshirilishini, 136-137-moddalar esa sud jarayonida oshkorlik va tortishuv tamoyillarini belgilaydi. Ushbu normlar fuqarolik protsessual qonunchiligining konstitutsiyaviy poydevori hisoblanib, barcha protsessual me'yorlar ana shu asosda shakllanishi lozim.

Oliy sud Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 16-sonli qarorida ta'kidlanishicha, sud hujjatlarida huquqiy asos sifatida birinchi navbatda Konstitutsiyaning tegishli normalariga tayanilishi lozim.⁷

Fuqarolik protsessual kodeksi (FPK) — O'zbekiston fuqarolik protsessual huquqining markaziy va asosiy manbasi hisoblanadi. Hozirgi amalda bo'lgan FPK 22.01.2018 yilda qabul qilingan bo'lib, 2025-yilga qadar bir necha marta yangilangan. FPKning 1-moddasiga ko'ra, fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilik da'vo tartibidagi ishlarni, buyruq tartibidagi ishlarni, alohida tartibda yuritiladigan ishlarni, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlarni hamda chet davlat sudlarining qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.⁸

⁶O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri, 2023-yil 30-aprel). // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.

⁷O'zR Oliy sudi Plenumining 23.06.2023-yildagi 16-sonli Qarori, 2-band. URL: <https://www.lex.uz/en/docs/-6523654>.

⁸O'zR FPK, 1-modda. URL: <https://lex.uz/docs/-3517337>.

O'zbekiston protsessual manbalar tizimida huquqiy hujjatlarning ierarxik piramidasi shakllantirilgan. Ushbu ierarxiya "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun bilan mustahkamlangan bo'lib, protsessual manba sifatida foydalaniladigan har bir hujjat ana shu ierarxiya talablariga rioya qilishi shart.

Xalqaro shartnomalar ushbu ierarxiyada alohida o'rin egallaydi. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq, agar xalqaro shartnomada milliy qonunchilikdan farqli qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston huquq tizimida Oliy sud Plenumining qarorlari tavsiya xarakterida bo'lsa-da, amaliy jihatdan muhim protsessual manba vazifasini o'taydi. Oliy sud Plenumining 2018-yil 19-may 14-sonli "Birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori quyi instansiya sudlari tomonidan FPK normalarini bir xilda qo'llashni ta'minlaydi.⁹

O'zbekiston ratifikatsiya qilgan xalqaro shartnomalar fuqarolik protsessual huquqining tashqi manbalarini tashkil etadi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt (ICCPR), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt va MDH doirasida tuzilgan sudlar yordami to'g'risidagi shartnomalar O'zbekiston protsessual manbalar tizimiga integratsiyalashgan. FPKning 2025-yil yangilangan tahriridagi mediativ kelishuv va hakamlik

⁹O'zR Oliy sudi Plenumining 19.05.2018-yildagi 14-sonli Qarori. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3761338>.

qarorlarini tan olishga oid normalar ayni shu xalqaro majburiyatlarni amalga oshirishning ifodasi hisoblanadi.

AQSH huquq tizimida fuqarolik protsessual huquqining manbalari

AQSH Konstitutsiyasi fuqarolik protsessual huquqining eng oliy manbasi hisoblanadi. Biroq uning protsessual huquqqa ta'siri O'zbekiston modelidan farqli tarzda to'g'ridan-to'g'ri protsessual normalar o'rniga konstitutsiyaviy tamoyillar orqali yuzaga keladi.

AQSH Oliy sudi *Pennoyer v. Neff* (1877), *International Shoe Co. v. Washington* (1945) va *Mathews v. Eldridge* (1976) kabi muhim ishlar bo'yicha yaratgan pretsedentlar AQSHda fuqarolik protsessini shakllantirgan asosiy konstitutsiyaviy manbalar bo'lib xizmat qiladi. Bu ishlar hudud yurisdiksiyasi, fuqarolik protsessining konstitutsiyaviy chegaralarini belgilab bergan muhim huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Federal Rules of Civil Procedure (FRCP) 1938-yilda kuchga kirgan va AQSH federal sudlarida fuqarolik ishlarini yuritishni tartibga soluvchi asosiy manba hisoblanadi. FRCPning yaratilishi 1934-yilgi Rules Enabling Act (28 U.S.C. §2072) bilan bog'liq bo'lib, ushbu qonun AQSH Oliy sudiga federal sudlar uchun protsessual qoidalar ishlab chiqish vakolatini berdi.

Hozirgi kunda FRCP 106 ta asosiy qoidadan iborat bo'lib, 2025-yilda so'nggi marta yangilangan. FRCPning 1-qoidasiga ko'ra, ushbu qoidalar har bir ish va ish yuritish tartibida adolatli, tezkor qabul qilishni ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu tushuncha O'zbekiston FPKning maqsad va vazifalarini

belgilovchi normalar bilan funksional mos keladi, ammo amalga oshirish mexanizmlari jihatidan farqlanadi.¹⁰

FRCP 8-qoidasining “short and plain statement” (qisqa va aniq bayonot) talabi da’vo arizasiga qo’yiladigan minimum standartni belgilaydi. Bell Atlantic Corp. v. Twombly (2007) va Ashcroft v. Iqbal (2009) ishlari bo’yicha Oliy sud qarorlari bu standartni “plausibility pleading” (ishonchlilik prinsipi) darajasiga ko’tardi, bu esa FRCP talqinida pretsedentning qanchalik muhim rol o’ynashini yaqqol ko’rsatadi.¹¹

AQSHda protsessual manbalarni yaratish mexanizmi o’ziga xos bo’lib, bu O’zbekiston tizimidan fundamental farq qiladi. FRCP Oliy sud tomonidan qabul qilinadi, biroq bu jarayon **Muvaqqat Qo'mita (Advisory Committee on Civil Rules) → Doimiy Qo'mita (Standing Committee on Rules of Practice and Procedure) → Oliy sud → Kongress** ko’rinishidagi bosqichli tartibda amalga oshiriladi. Kongress FRCP amal qilishiga e’tiroz bildirmasa, yangi qoidalar yilning 1-dekabridan kuchga kiradi.

Bu mexanizm shuni anglatadiki, FRCP texnik jihatdan qonun kuchiga ega bo’lgan hujjat sifatida tasniflansa-da, uning manbai sudlovga mansub bo’lib, qonunchilik organidan emas, balki Kongresning delegatsiya orqali berilgan

¹⁰ Federal Rules of Civil Procedure (FRCP), Rule 1. URL: <https://www.law.cornell.edu/rules/frcp>; Federal Judicial Center. URL: <https://www.fjc.gov/history/work-courts/rules-federal-rules-civil-procedure>.

¹¹ Bell Atlantic Corp. v. Twombly, 550 U.S. 544 (2007); Ashcroft v. Iqbal, 556 U.S. 662 (2009).

vakolati asosida kuchga kiradi. O'zbekistonda esa protsessual normalarni yaratish faqat Oliy Majlis va Prezident vakolatiga kiradi — bu ikki tizim o'rtasidagi farqni yaqqol ifodalaydi.

AQSH federal tuzilishi protsessual manbalar tizimini murakkablashtiradi: federal FRCP bilan bir qatorda 50 shtatning har biri o'z fuqarolik protsessual qoidalariga ega. Shtat sudlarida, ya'ni AQSHdagi da'vo ishlarining katta qismida, federal FRCP emas, balki shtat qoidalari qo'llaniladi. Masalan, Kaliforniya California Code of Civil Procedure (CCP), Nyu-York esa Civil Practice Law and Rules (CPLR) asosida ish yuritadi.¹²

Erie Railroad Co. v. Tompkins (1938) ishidagi Oliy sud qarorlari federal sudlar shtat qonunchiligini qachon qo'llashi lozimligini belgiladi. Bu qaror federal va shtat protsessual qonunchiligi o'rtasidagi munosabatni tartibga soluvchi muhim pretsedent hisoblanadi va hozirgacha AQSHda protsessual huquqni qo'llashda asosiy yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi.

AQSHdagi protsessual huquqning eng o'ziga xos xususiyati pretsedent (case law) manbaning ahamiyatidir. Stare decisis (qaror qabul qilgan sudga rioya qilish) prinsipi protsessual normalarning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Pretsedent manba sifatida uchta darajada ishlaydi:

1) AQSH Oliy sudi qarorlari — barcha federal va shtat sudlari uchun majburiy;

¹²Erie Railroad Co. v. Tompkins, 304 U.S. 64 (1938); Wright C.A., Miller A.R. Federal Practice and Procedure. — West Publishing, 2024. Vol. 1.

2) Federal Apellyatsiya sudi (Circuit Court) qarorlari — o'z nizomida joylashgan past instansiya federal sudlari uchun majburiy;

3) Federal District(quyi sud organlari) sud qarorlari — faqat ta'sir kuchi (persuasive authority) sifatida.

AQSHda **ilmiy adabiyotlar va huquq doktrinasi** protsessual manbalarning ikkilamchi qismini tashkil etadi. Wright & Miller's Federal Practice and Procedure (so'nggi nashr, 2024) asari FRCP normalarini izohlovchi eng obro'li manba sifatida sudlar tomonidan tez-tez iqtibos qilinadi. Restatements of Law (AQSh Huquq instituti chiqaradigan to'plamlar) ham protsessual manbalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.¹³

O'zbekistonda ham ilmiy adabiyotlar xususan, Mamasidiqov, Esanova, Habibullayev muallif bo'lgan "Fuqarolik protsessual huquqi" darsligi va shu kabi boshqa ko'plab nazariy adabiyotlar protsessual normalarni tushuntirishda ahamiyatli rol o'ynaydi. Biroq O'zbekistonda ilmiy adabiyotlar rasmiy manba maqomiga ega emas va ular faqat yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi.¹⁴

¹³Georgetown Law Library. Federal Court Rules Research Guide. URL:

<https://guides.ll.georgetown.edu/c.php?g=320799&p=2146402>.

Brooklyn Law School Civil Procedure Guide. URL:

https://guides.brooklaw.edu/federal_civil_procedure.

¹⁴Mamasidiqov M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.



Ikkala tizim o'rtasidagi fundamental farq manba ierarxiyasining tuzilishida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda manba tizimi qonunlar va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar yagona tartibda keladi. Ushbu tuzilish aniq, oldindan ko'ra biladigan va qat'iy ierarxik tartibga asoslanadi. Asosiy afzalligi huquqiy munosabatlarning barqarorligi va huquqiy aniqlik (legal certainty) tamoyilining ta'minlanishidir.¹⁵

AQSHda esa manba tizimi konstitutsiya, federal qonunlar, FRCP, shtat qoidalari, pretsedentlar va doktrina bir-biri bilan murakkab aloqada bo'ladi. Bu tuzilish moslashuvchanlikni ta'minlaydi, ammo huquqiy aniqlik jihatidan muammolar tug'dirishi mumkin, ayniqsa federal va shtat sudlari o'rtasida yurisdiksiya masalalarida. Ikkala tizimda ham Konstitutsiya ustun manba hisoblanadi, ammo uning protsessual huquqqa ta'sir ko'rsatish mexanizmi tubdan farqlanadi.

O'zbekistonda protsessual huquq normasini yaratish Oliy Majlis vakolatiga kiradi. Qonun loyihasi ishlab chiqiladi, muhokama qilinadi va tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi. Sud organlari protsessual norma yarata olmaydi — ular faqat normani talqin qilishi mumkin. Bu yondashuv huquqiy barqarorlikni ta'minlasa-da, tezkor ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish imkoniyatini cheklashi mumkin.

AQSHda esa FRCP uchun protsessual norma yaratish Oliy sudga va Kongressga birgalikda tegishli. Shu bilan birga, Oliy sud pretsedent yaratish orqali de facto protsessual normalar shakllantirilishida faol ishtirok etadi. O'zbekistonda

¹⁵Zweigert K., Kötz H. Introduction to Comparative Law. — P. 256–310; Merryman J.H. The Civil Law Tradition. — P. 115–140.

protsessual qoidalar qat'iy yozma shaklda ifodalangan va sudyaning talqin imkoniyatlari cheklangan; AQSHda esa sudyalarning pretsedent yaratish orqali protsessual qoidani belgilashda sezilarli erkinlikka ega.

So'nggi o'n yilliklarda ikkala tizim ham xalqaro protsessual standartlarga yaqinlashish tendensiyasini ko'rsatmoqda. O'zbekiston 2017-2023 yillardagi sud-huquq islohoti doirasida xalqaro arbitrajni kuchaytirdi, mediatsiyani protsessual tizimga kiritdi va elektron sud ish yuritishini joriy etdi. 2025-yildagi FPK yangilanishlari mediativ kelishuv va hakamlilik qarorlarini tan olishga oid qoidalarni yanada takomillashtirdi.¹⁶

AQSH ham, xalqaro tijorat arbitraji sohasida, UNCITRAL Model Qonuniga asoslangan xalqaro standartlarga moslashmoqda. Federal Arbitration Act (FAA) doirasidagi amaliyot O'zbekistondagi hakamlilik sudlari qonunchiligiga yaqin bir qator prinsiplarga asoslanadi. Bu yaqinlashish huquqiy globallashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning protsessual huquq sohasidagi ifodasi hisoblanadi.

Ushbu qiyosiy tadqiqot fuqarolik protsessual huquqi manbalarining O'zbekiston va AQSH huquq tizimlarida muhim farqlar va qisman o'xshashliklar mavjudligini ko'rsatdi. Quyida asosiy xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi.

*Birinchi*dan, O'zbekistonda fuqarolik protsessual huquqi manbalarining asosi Konstitutsiya va FPK kodeksi tizimi bo'lsa, AQSHda Konstitutsiya, FRCP va

¹⁶O'zbekiston Respublikasi FPK (2025-yil o'zgartirishlar). URL: <https://lex.uz/docs/-3517337>.

O'zR IPK 2025-yil o'zgartirishlar. URL: <https://lex.uz/docs/-3523891>.

pretsedent parallel manba sifatida ishlaydi. Ikkala tizimda ham Konstitutsiya ustun manba hisoblanadi, ammo uning protsessual huquqqa ta'sir etish mexanizmi farqlanadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston tizimining asosiy afzalligi huquqiy aniqlik va oldindan ko'ra bilish imkoniyatini ta'minlashidir. AQSH tizimining afzalligi esa moslashuvchanlik va pretsedent mexanizmi orqali tizimning amaliy ehtiyojlarga tez moslasha olishidir. Har ikkala yondashuv ham oz o'rnida asosli va maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, O'zbekiston huquq tizimida Oliy sud Plenumi qarorlarining de facto pretsedentga yaqin funktsiya bajarishi, AQSHda esa qonunchilik faoliyatining tobora kuchayishi — ikkala tizimning bir-biriga ta'sir ko'rsatayotganligini anglatadi va bu tendensiya kelajakda yanada kuchayishi kutilmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa qilsak O'zbekistonda: Oliy sud Plenumi qarorlarining maqomini yanada aniqlashtirish — ularni rasmiy manba sifatida tan olish yoki majburiy kuch berishning maqsadga muvofiqligi qonunchilik darajasida muhokama qilinishi zarur deb hisoblaymiz.

AQSH davlati qonunlarida esa Shtat va federal protsessual qoidalar o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirish va yagona standartlashtirishga intilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, discovery qoidalari va class action standartlarida shtatlar o'rtasidagi farqlar taraflar uchun huquqiy noaniqlik yaratmoqda.

Ikki tizim o'rtasidagi huquqiy hamkorlik, xalqaro arbitraj va tijorat nizolarini ko'rishda o'zaro tan olish mexanizmlari — kelajak huquqiy hamkorlikning asosiy yo'nalishi bo'lishi lozim. O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi ikki tomonlama huquqiy yordam to'g'risidagi shartnoma tuzilishi ushbu hamkorlikni yanada mustahkamlash imkonini beradi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida qiyosiy protsessual huquq kurslarini joriy etish va xorijiy huquq tizimlari bilan tanishishni ta'minlash protsessual huquqning nazariy va amaliy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023 yangi tahriri. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. 22.01.2018 yil qabul qilingan (2025-yil o'zgartirishlar bilan). // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-3517337>.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism). 21.12.1995 yil. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-111189>.
4. O'zbekiston Respublikasining 'Sudlar to'g'risida'gi Qonuni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/acts/-20596>.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Hakamlilik sudlari to'g'risida”gi Qonuni. 16.10.2006 yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.05.2018-yildagi 14-sonli Qarori “Birinchinstansiya sudi tomonidan fuqarolik protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3761338>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 23.06.2023-yildagi 16-sonli Qarori “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”. URL: <https://www.lex.uz/en/docs/-6523654>.
8. Mamasidiqov M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”.
10. U.S. Constitution. 1787, with Amendments I-XXVII. URL: <https://constitution.congress.gov/>.
11. Federal Rules of Civil Procedure (FRCP). Adopted 1938, last amended December 1, 2025. // United States Courts. URL: <https://www.uscourts.gov/forms-rules/current-rules-practice-procedure/federal-rules-civil-procedure>.
12. Federal Rules of Civil Procedure (Full Text). // Cornell Legal Information Institute (LII). URL: <https://www.law.cornell.edu/rules/frcp>.

13. Rules Enabling Act, 28 U.S.C. §2072 (1934). URL: <https://uscode.house.gov/view.xhtml?req=granuleid:USC-2022-title28a-node88&edition=2022>.

14. Federal Judicial Center. Rules: Federal Rules of Civil Procedure. // Official history and background. URL: <https://www.fjc.gov/history/work-courts/rules-federal-rules-civil-procedure>.

15. Georgetown Law Library. Federal Court Rules Research Guide. URL: <https://guides.ll.georgetown.edu/c.php?g=320799&p=2146402>.

16. Brooklyn Law School. Overview & Links — Federal Civil Procedure. URL: https://guides.brooklaw.edu/federal_civil_procedure.

17. FederalRulesOfCivilProcedure.org — 2026 Edition. URL: <https://www.federalrulesofcivilprocedure.org>.

18. Hazard G.C., Taruffo M. American Civil Procedure: An Introduction. — New Haven: Yale University Press, 1993.

19. Wright C.A., Miller A.R. Federal Practice and Procedure. — St. Paul: West Publishing, 2024 (so'nggi nashr).

20. Subrin S., Minow M., Brodin M., Main T. Civil Procedure: Doctrine, Practice, and Context. — New York: Wolters Kluwer, 2021.

21. Merryman J.H., Pérez-Perdomo R. The Civil Law Tradition: An Introduction to the Legal Systems of Europe and Latin America. — Stanford University Press, 2007.

